



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 288 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуловна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуловна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohnbazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабижанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbeyeve Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	
Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan	204
Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	208
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich	
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish.....	212
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
Цифровизации системы стратегического управления предприятий нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	217
Азимов Кабул	
Индекс устойчивости региона против бедности (poverty resilience index – pri): на примере бухарской области Республики Узбекистан (2024)	223
Мухамедова Мадинабону Мехридиновна	
Экономические аспекты внедрения цифровых технологий в полиграфии.....	230
Юсупхужаева Шахноза Музаффар кизи	
Mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	233
Sattorov R. A.	
Web3'da real vaqt ma'lumot sinxronizatsiyasi — tarmoqdagi kechikishlar va ularni kamaytirish texnologiyalari.....	240
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Tijorat banklarining likvidligini tartibga solish amaliyotining dolzarb masalalari	246
Sayfutdinov Bobur Nodirovich	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	255
Yuldoshev Otabek Jovli o'g'li	



Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari.....	261
Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich	
Innovatsion yondashuvlar orqali davlat xaridlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish	266
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
Hududlarda barqaror rivojlanish nazariyalarining sanoat korxonalari faoliyatiga ta'siri	270
Sadriddinov Baxtiyor Shamshiddin o'g'li	
Turizm platformalarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy kontent va raqamli marketing strategiyalarining integratsiyalashgan yondashuvi.....	277
Dadamirzayev Sarvarbek Ulug'bek o'g'li	
Bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish yo'nalishlari.....	283
Almosova Shohista Jobirovna	



BANK XIZMATLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI KENGAYTIRISH YO'NALISHLARI



Almosova Shohista Jobirovna

Renessans ta'lim universiteti o'qituvchisi
<https://orcid.org/0009-0001-2464-5562>

Annotatsiya: Maqolada bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish yo'nalishlari tahlil qilinib, ularning zamonaviy moliya tizimidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi, mijozlar talabining o'zgarishi, FinTech raqobati va regulativ muhitning moslashuvi kabi omillar bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonini jadallashtirayotgani ko'rsatib o'tilgan. Mobil va internet-banking, sun'iy intellekt va Big Data, blokcheyn texnologiyalari, biometrik autentifikatsiya hamda ochiq bank tizimlari kabi asosiy innovatsion yo'nalishlar tahlil qilingan. Shuningdek, banklarda innovatsiyalarni keng joriy etish strategiyalari, kiberxavfsizlikni mustahkamlash choralari, kadrlar salohiyatini oshirish hamda FinTech ekotizimini rivojlantirish yo'llari keltirilgan. Xalqaro tajriba asosida O'zbekiston sharoitida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari bank sektorida xizmatlar sifatini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga qulaylik yaratishda innovatsion yondashuvlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: bank xizmatlari, innovatsion texnologiyalar, raqamli transformatsiya, mobil banking, internet-banking, sun'iy intellekt (AI), Big Data, blokcheyn, biometrik autentifikatsiya, ochiq bank tizimi (Open Banking), FinTech, kiberxavfsizlik, moliyaviy xizmatlar.

Abstract: The article analyzes the directions for expanding innovative technologies in banking services, highlighting their role and significance in the modern financial system. It examines key factors accelerating digital transformation in the banking sector, such as the development of the digital economy, changing customer expectations, competition from FinTech companies, and the adaptation of the regulatory environment. The study discusses major innovation trends, including mobile and internet banking, artificial intelligence (AI) and big data analytics, blockchain technologies, biometric authentication, and open banking systems. Strategies for implementing innovations—such as strengthening cybersecurity, enhancing human capital, and developing the FinTech ecosystem—are presented. Based on international experience, practical recommendations are proposed for introducing innovative technologies in the context of Uzbekistan. The findings demonstrate that innovative approaches are essential for improving service quality, reducing operational costs, and creating greater convenience for customers in the banking sector.

Key words: banking services, innovative technologies, digital transformation, mobile banking, internet banking, artificial intelligence (AI), big data, blockchain, biometric authentication, open banking, FinTech, cybersecurity, financial services.

Аннотация: В статье анализируются направления расширения использования инновационных технологий в банковских услугах, подчеркивается их роль и значение в современной финансовой системе. Рассмотрены ключевые факторы, ускоряющие процесс цифровой трансформации в банковском секторе, такие как развитие цифровой экономики, изменение ожиданий клиентов, конкуренция со стороны FinTech-компаний и адаптация нормативно-правовой базы. Проанализированы основные направления инноваций, включая мобильный и интернет-банкинг, искусственный интеллект (AI) и аналитические системы Big Data, технологии блокчейн, биометрическую аутентификацию и системы открытого банкинга. Представлены стратегии внедрения инноваций, в том числе укрепление кибербезопасности, повышение кадрового потенциала и развитие экосистемы FinTech. На основе международного опыта предложены практические рекомендации по внедрению инновационных



технологий в условиях Узбекистана. Результаты исследования показывают, что инновационные подходы играют важную роль в повышении качества обслуживания, сокращении операционных затрат и создании дополнительных удобств для клиентов банковского сектора.

Ключевые слова: банковские услуги, инновационные технологии, цифровая трансформация, мобильный банкинг, интернет-банкинг, искусственный интеллект (AI), Big Data, блокчейн, биометрическая аутентификация, открытый банкинг, FinTech, кибербезопасность, финансовые услуги.

KIRISH

So'nggi yillarda global moliya tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlar bank sektorini chuqur transformatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, elektron savdo hajmining ortishi, mijozlar ehtiyojlarining diversifikatsiyalashuvi hamda xalqaro moliyaviy integratsiya jarayonlari bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishni strategik ustuvor yo'nalishga aylantirgan. Bugungi kunda banklar nafaqat moliyaviy vositachilikni amalga oshiruvchi institutlar, balki zamonaviy texnologiyalar asosida mijozlar uchun yangi qiymat yaratuvchi xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar sifatida shakllanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida bank tizimini modernizatsiya qilish va moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, masofaviy bank xizmatlari, mobil ilovalar, blokcheyn asosidagi to'lov tizimlari, biometrik autentifikatsiya, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari kabi yechimlar amaliyotga joriy etilmoqda. Bu esa nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki banklarning operatsion samaradorligini kuchaytiradi, xarajatlarni kamaytiradi va yangi daromad manbalarini shakllantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqola bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish yo'nalishlarini tahlil qilish, ularning amaliy ahamiyatini baholash va O'zbekiston sharoitida samarali joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish bo'yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar so'nggi o'n yillikda sezilarli darajada faollashgan. Jahon tajribasida bu borada bir qator ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda soha mutaxassislari ishlari keng qo'llanilmoqda.

Avvalo, raqamli transformatsiya jarayonining bank sektoriga ta'siri masalasini o'rganishda Schwab K. (2016) tomonidan ilgari surilgan "To'rtinchi sanoat inqilobi" konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega. Muallif texnologik innovatsiyalar moliya bozorlarining raqobatbardoshligini oshirish bilan birga yangi xizmat turlarini shakllantirayotganini ta'kidlaydi. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon banki (World Bank)ning 2022–2024-yillardagi hisobotlarida esa bank xizmatlarida sun'iy intellekt, Big Data, blokcheyn va ochiq bank tizimlarining iqtisodiy samaradorligi chuqur tahlil qilingan.

BIS (Bank for International Settlements) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar (2023) mobil banking va raqamli to'lov tizimlarining moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi o'rnini, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda bank xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlarini oshirishi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. PwC va Deloitte kompaniyalarining yillik fintech sohasidagi sharhlari esa innovatsion texnologiyalarni joriy etishda strategik yondashuvlar, kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish hamda mijozlar tajribasini yaxshilash usullarini yoritadi.

O'zbekiston olimlari orasida Tursunov B.O. (2021) va Xolmatova D.X. (2022) ishlarida mahalliy bank tizimida raqamli transformatsiyaning rivojlanish dinamikasi, mobil ilovalar, QR-to'lov tizimlari hamda masofaviy xizmatlarni kengaytirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e'lon qilingan statistik byulletenlar va tahliliy hisobotlar (2023–2024) milliy bank tizimida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishning real ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Xalqaro tajriba sifatida Estoniya, Singapur va Yaponiya misollarida ochiq bank tizimlari, biometrik autentifikatsiya va raqamli identifikatsiya (e-ID) tizimlarining joriy etilishi samarali natijalar bergani ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Bu tajribalar O'zbekiston bank sektorida ham moslashtirilgan holda qo'llanishi mumkin.

Mazkur adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish — bu nafaqat texnik yangiliklarni joriy etish, balki strategik boshqaruv, regulyativ muhitni moslashtirish va kadrlar salohiyatini oshirishni talab qiladigan kompleks jarayondir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg'un qo'llanildi. Avvalo, xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar hamda Markaziy bank, Jahon banki va IMF hisobotlari tahlil qilindi. 2019–2024-yillar statistik ma'lumotlari



asosida trend va korrelyatsion tahlil usullari qo'llandi. Qiyosiy tahlil orqali Estoniya, Singapur va Yaponiya tajribalari o'rganildi. Shuningdek, ekspert so'rovlari yordamida banklar va FinTech mutaxassislarining fikrlari tahlil qilinib, innovatsion texnologiyalarni kengaytirishdagi asosiy muammo va imkoniyatlar aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish so'nggi yillarda sezilarli darajada jadallashdi. 2019–2024-yillar davrida raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni keskin oshib, mobil banking, internet banking, QR-to'lovlar va boshqa masofaviy xizmatlar iqtisodiyotning muhim segmentiga aylandi (1-jadval).

1-jadval. 2019–2024-yillarda O'zbekistonda raqamli bank xizmatlari dinamikasi¹

Ko'rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil*	O'sish (%)
Masofaviy bank foydalanuvchilari (mln kishi)	9,8	12,4	15,7	18,9	21,5	23,0	+134,7 %
Mobil banking tranzaksiyalari hajmi (trln so'm)	6,5	12,8	21,4	32,6	41,7	48,2	+641,5 %
Raqamli to'lovlar ulushi (%)	22	34	47	55	63	68	—
Bank ilovalari soni (ta)	18	22	25	27	30	32	+77,8 %

1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, 2019–2024-yillar oralig'ida O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining rivojlanish sur'ati barqaror va yuqori bo'ldi. Mobil bank ilovalaridan foydalanuvchilar soni ushbu davrda uch barobardan ortiq o'sdi, bu esa aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish odatlarida sifatli o'zgarish yuz berayotganini anglatadi. Internet-banking orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi yil sayin sezilarli darajada oshib, 2024-yilda 2019-yilga nisbatan bir necha o'n barobar yuqori ko'rsatkichga erishildi. Ushbu o'sish tendensiyasi bank sektorining raqamli transformatsiyaga faol kirishganini va mijozlarga yanada qulay, tezkor hamda xavfsiz xizmatlar taqdim etish yo'lida yangi texnologiyalarni keng qo'llayotganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, mobil to'lov tizimlari, QR-kod orqali to'lovlar va onlayn kreditlash xizmatlarining kengayishi moliyaviy inklyuziyani oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, pandemiya davrida onlayn operatsiyalar ulushi keskin oshib, bank-mijoz o'zaro munosabatlarida masofaviy xizmatlar yetakchi o'ringa chiqdi. Bu esa nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga, balki bank tizimining umumiy samaradorligini oshirishga ham xizmat qildi.

Biroq raqamli bank xizmatlarining tezkor rivojlanishi bilan bir qatorda, kiberxavfsizlik tahdidlari, ma'lumotlarni himoya qilish masalalari va texnologik infratuzilmaning doimiy modernizatsiyasi zarurati ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuning uchun kelgusi yillarda banklar nafaqat innovatsion yechimlarni joriy etishga, balki ularning xavfsizligini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratishi zarur.

Umuman olganda, 2019–2024-yillardagi statistik dinamikalar O'zbekiston bank sektorida raqamli xizmatlarning jadal rivojlanishini ko'rsatib, moliyaviy xizmatlarning qulayligi, tezkorligi va ommabopligini oshirish bo'yicha katta salohiyat mavjudligini tasdiqlaydi. Shu sababli, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish kelgusida bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omillardan biri bo'lib qoladi.

O'zbekistonda 2019–2024-yillar davomida bank sektorida raqamli transformatsiya jarayonlari izchil rivojlanib, bir qator muhim natijalarga erishildi. Ushbu davrda mobil va internet-banking foydalanuvchilari soni keskin oshib, moliyaviy xizmatlardan foydalanish qulayligi sezilarli darajada yaxshilandi.

Birinchidan, mijozlar bazasining kengayishi kuzatildi. 2019-yilda 12 million atrofida bo'lgan onlayn-banking foydalanuvchilari soni 2024-yilga kelib 28 milliondan oshdi, bu esa 2,3 baravar o'sishni anglatadi. Bunda pandemiya davrida masofaviy xizmatlarga talabning ortishi va bank ilovalari funksionalligining kengayishi muhim omil bo'ldi.

Ikkinchidan, tranzaksiyalar hajmining o'sishi qayd etildi. Masalan, 2020-yilda mobil-banking orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 50 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 220 trillion so'mga yetdi. Bu jarayon banklarning texnik infratuzilmani modernizatsiya qilishi va tezkor to'lov tizimlarini joriy etishi bilan izohlanadi.

¹ <https://cbu.uz/uz/statistics/> Mrakaziy bank ramiy web sayti asosida muallif tomonidan tayyorlandi



Uchinchidan, naqd pulsiz to'lovlar ulushi oshdi. 2019-yilda umumiy to'lovlar tarkibida naqd pulsiz hisob-kitoblarning ulushi 32 % bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 64 % ga yetdi. Bu esa milliy iqtisodiyotda "naqd pulsiz iqtisodiyot" tamoyillarining kuchayganidan dalolat beradi.

To'rtinchidan, bank xizmatlari sifatining oshishi natijasida mijozlarning qoniqish darajasi ko'tarildi. So'rovlar natijasiga ko'ra, 2019-yilda raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning 67 % i xizmatlardan to'liq mamnun bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 88 % ga yetgan.

Beshinchidan, xarajatlarning optimallashtirilishi kuzatildi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali banklar filial tarmog'iga bo'lgan ortiqcha xarajatlarni kamaytirdi va operatsion samaradorlikni oshirdi.

Bunga asosiy sabab sifatida quyidagi zamonaviy texnologiyalarning roli ko'rsatib o'tiladi. Sun'iy intellekt (AI) asosida kredit reytingini avtomatik baholash tizimlari joriy etilishi kredit berish jarayonini o'rtacha 35 % ga tezlashtirdi. Big Data texnologiyalari mijozlarning xarid odatlarini tahlil qilish orqali kross-sotuv xizmatlaridan tushgan daromadni 18 % ga oshirdi. Blokcheyn asosidagi pilot to'lov tizimlari xalqaro tranzaksiyalarni 3–4 kun o'rniga bir necha daqiqada amalga oshirish imkonini berdi. Biometrik autentifikatsiya joriy etilgan banklarda foydalanuvchi kirishdagi xavfsizlik buzilishlari 40 % ga kamaydi.

Xalqaro miqyosda qaralganda, har bir davlatda banklarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish turlicha ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bu holat 2-jadvalda aks etgan.

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion bank texnologiyalarini joriy etish turli davlatlarda moliyaviy xizmatlar sifati, tezligi va mijozlar qamrovi bo'yicha sezilarli ijobiy natijalar bergan (2-jadval).

2-jadval. Xorij davlatlarda innovatsion bank texnologiyalari joriy etish natijalari²

Davlat	Asosiy texnologiya	Natija	O'zbekiston uchun ahamiyati
Estoniya	e-ID va raqamli imzo	Bank xizmatlarining 100 % masofadan ko'rsatilishi	Raqamli identifikatsiyani keng joriy etish
Singapur	Open Banking va API	Fintech xizmatlari hajmi yiliga +20 %	Ochiq bank ekotizimini yaratish imkoniyati
Yaponiya	Robotlashtirilgan xizmat	Operatsion xarajatlar -15–20 %	Bank filiallarida xizmat xarajatlarni kamaytirish
Janubiy Koreya	Mobil super-app	1,2 mlrd foydalanuvchi tranzaksiyasi birlashtirilgan	Yagona bank ilovalarini ishlab chiqish

Singapurda mobil banking va sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar joriy etilishi tranzaksiya vaqtini o'rtacha 45 % ga qisqartirgan va mijozlar sonini 30 % ga oshirgan. Estoniyada esa blokcheyn texnologiyalari orqali xavfsizlik darajasi yuqori darajada ta'minlangan, natijada mijozlar ishonchi 25 % ga oshgan. Yaponiyada robotlashtirilgan mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimlari va avtomatlashtirilgan kredit baholash modullari bank operatsiyalarining samaradorligini 40 % ga oshirgan.

Mazkur tajribalar shuni anglatadiki, innovatsion texnologiyalar faqat xizmatlar sifatini yaxshilash bilan cheklanmay, balki banklar faoliyatining umumiy raqobatbardoshligini ham oshiradi. Xususan, tranzaksiya tezligi, xizmatlarning uzluksizligi va mijozlar ehtiyojiga moslashtirilgan yechimlar bank tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois, O'zbekiston bank tizimida mazkur ilg'or texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish raqamli transformatsiya jarayonini tezlashtirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda raqamli bank xizmatlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat xizmatlar sifatini oshirmoqda, balki bank tizimining raqobatbardoshligini ham kuchaytirmoqda. 2019–2024-yillar oralig'ida O'zbekistonda mobil ilovalar, onlayn to'lov platformalari, sun'iy intellekt asosidagi mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimlari, blokcheyn texnologiyalari va biometrik autentifikatsiya kabi yechimlar faol joriy qilinmoqda. Jahon tajribasi (Singapur, Estoniya, Yaponiya kabi mamlakatlar misolida) shuni isbotlaydiki, bunday innovatsiyalar bank operatsiyalarining tezligi, xavfsizligi va qulayligini oshirish bilan birga yangi mijozlarni jalb etish hamda moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, texnologik transformatsiya banklarning xarajatlarni kamaytiradi, ma'lumotlar xavfsizligini mustahkamlaydi va xizmatlarni mijoz ehtiyojiga moslashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Takliflar

Bosqichma-bosqich transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish — banklarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish rejasini aniq muddatlar va bosqichlarga ajratgan holda amalga oshirish.

2 Muallif tomonidan tayyorlandi



Milliy raqamli infratuzilmani mustahkamlash — keng polosali internet, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari va kiberxavfsizlik tizimlarini rivojlantirish orqali xizmatlar uzluksizligini ta'minlash.

Xalqaro tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish — ilg'or davlatlarning muvaffaqiyatli tajribasini (Singapur, Estoniya, Yaponiya) mahalliy sharoitga moslashtirish.

Kadrlar salohiyatini oshirish — bank xodimlari uchun raqamli texnologiyalar, kiberxavfsizlik va ma'lumotlar tahlili bo'yicha doimiy malaka oshirish dasturlarini joriy etish.

Mijozlar uchun qulay interfeys va xavfsizlik yechimlari yaratish — biometrik autentifikatsiya, ikki bosqichli tasdiqlash va sun'iy intellekt asosidagi onlayn yordamchilarni keng joriy etish.

Moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish — raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini aholining barcha qatlamlari, jumladan, chekka hududlardagi aholiga ham yetkazish.

Innovatsion mahsulotlarni ichki bozor talabiga moslashtirish — mijozlarning real ehtiyojlarini tahlil qilib, bank xizmatlarini shunga moslashtirish orqali bozor ulushini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–6079-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-apreldagi "Bank tizimini raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–238-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari" yillik hisobotlari (2019–2024). – Toshkent, 2024.
4. Karimov, A. (2023). O'zbekistonda bank xizmatlarini modernizatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rn. Toshkent moliya instituti ilmiy jurnali, №2, 45–56-b.
5. Shavkatova, M. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish yo'nalishlari. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy maqolalar to'plami, №1, 122–135-b.
6. Abdurahmonov, I. (2022). Moliyaviy texnologiyalar va ularning tijorat banklarida qo'llanilishi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya.
7. Deloitte (2023). Global Banking Outlook 2023: Digital Transformation and Future Banking Trends. Deloitte Insights.
8. PwC (2022). Financial Services Technology 2025 and Beyond: Embracing Disruption. PricewaterhouseCoopers Report.
9. World Bank (2022). Digital Financial Services: Innovations for Inclusion. Washington D.C.
10. EY (2022). Global FinTech Adoption Index 2022. Ernst & Young Global Limited.
11. Accenture (2023). Banking Technology Vision 2023: Reinventing Banking for the Digital Age.
12. IMF (2021). Fintech: The Experience So Far. International Monetary Fund.
13. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2018). Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. Penguin Random House.
14. Schwab, K. (2017). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
15. OECD (2022). Digital Disruption in Banking and Its Impact on Financial Inclusion. OECD Publishing.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>